

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PROFESSIONAL TAYYORGARLIGINI PEDAGOGIK TASHXISLASH VA MONITORING QILISH JARAYONINING USTUVOR TAMOYILLARI

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatlarini tashkil etish, ularning kasbiy faoliyatining ijodiy jihatlari, tadqiqotchilik hamda loyihachilik ko'nikmalarini samarali rivojlantirish imkoniyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogik amaliyot, bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligi, loyihachilik ko'nikmalari, pedagogik tajriba.

В данной статье рассматривается организация педагогической деятельности будущих учителей, творческие аспекты их профессиональной деятельности, возможность эффективного развития исследовательских и проектных способностей.

Ключевые слова. Современные педагогические технологии, педагогическая практика, профессиональная подготовка будущих учителей, проектные навыки, педагогический опыт.

This article discusses the organization of pedagogical activities of future teachers, the creative aspects of their professional activities, the possibility of effective development of research and design skills.

Key words. Modern pedagogical technologies, pedagogical practice, professional training of future teachers, design skills, pedagogical experience.

Bo'lajak o'qituvchilar faoliyatining mazmuni o'quv yili davomida o'zlari egallagan professional tayyorgarliklarini pedagogik tashxislash va monitoring qilish ularning faoliyat reytingini hisoblashni o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchilar ilmiy-metodik faoliyatini quyidagi mezonlar asosida tashxislash va monitoring qilish maqsadga muvofiqdir:

- o'qitiladigan fan bo'yicha talabani darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiradigan faoliyati mazmunining namoyon bo'lishi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirganligi;
- o'zlashtirilgan pedagogik bilimlarning ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashganligi;
- o'z pedagogik bilimlarini mustaqil oshirish sohasidagi harakatlarning namoyon bo'lishi;
- o'z kasbiga oid ilg'or xalqaro tajribalarni o'zlashtirganligi;
- talabalar orasida o'tkaziladigan turli tanlovlar, olimpiadalar va konferensiyalarda ishtirok etganliklari;
- pedagogik amaliyotdagi ishtiroklari darajasining ifodalanganligi kabilar.

Pedagogik amaliyot jarayonida darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil eta olish ko'nikmasining shakllanganligi ham bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishda muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak

o'qituvchilarning pedagogik faoliyatlarini tashkil etish, ularning ilmiy anjumanlarda ishtirok etishlari va yutuqlarga erishishlari, ijodiy faoliyatlarining rag'batlantirilishi talabalarning professional taraqqiyotini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning turli yo'nalishlarda muvaffaqiyatlarga erishganligi uning professional tayyorgarligi darajasini belgilab, pedagogik faoliyat natijalarida o'z ifodasini topadi. Bo'lajak o'qituvchilarni turli to'garaklar, tanlovlar va viktorinalarga jalb etish orqali ularda kasbiy faoliyatning ijodiy jihatlari, tadqiqotchilik hamda loyihachilik ko'nikmalarini samarali rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarining hosil bo'lganligi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi:

- talabalarning pedagogik tadqiqotlarga keng jalb qilinishlari;
- bo'lajak o'qituvchilar yangi imkoniyatlardan foydalangan holda o'quvchilarning faoliyatlarini loyihalashtirishlari va uning natijalarini baholay olishlari;
- bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda kafolatlangan natijaga erishish yo'llarini aniq bilishlari va uni samarali loyihalashtira olishlari;
- talabalar pedagogik amaliyot jarayonida ochiq darslarni tashkil etish va o'tkaza olish tajribasiga ega bo'lishlari kabilar.

Shu bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchilar quyidagi ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari kerak: o'zlashtirgan pedagogik bilimlarini pedagogik amaliyot, turli tanlovlar, konferensiyalar jarayonida namoyon qilish; o'zlashtirgan pedagogik tajribalarini egallagan bilimlari bilan uyg'unlashtirish; o'zining kasbiy bilimlarini mustaqil oshirish maqsadida izlanishlar olib borish, tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish.

Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishda ularning pedagogik hamkorlik imkoniyatlarini egallaganlik darajalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirish imkoniyatlari kengayadi, pedagogik amaliyot jarayonida ilg'or o'qituvchilar bilan hamkorlikka kirishadilar.
2. Hamkorlik asosida o'quv jarayonini loyihalash bilan bog'liq professional ko'nikmalarni egallashga muvaffaq bo'ladilar.


B.Ma'murov'ning fikricha, bo'lajak o'qituvchilarning turli tanlovlarda ishtirok etishlari va bu tizimda kasbiy mahorat sirlarini egallashlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: talabalar o'rtasida o'tkaziladigan anjumanlar, fan olimpiadalari va tanlov hamda viktorinalarda ishtirok etish orqali.

Bo'lajak o'qituvchilarning egallagan kasbiy bilimlarini baholash o'quv yili davomida ikki marta: birinchi semestr hamda ikkinchi semestr natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. O'quv yili davomida talabalarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirganliklari barcha ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Olingan natijalarni umumlashtirish asosida bo'lajak o'qituvchilar bilimidagi bo'shliqlar aniqlanadi. Shu asosda talaba kasbiy faoliyatini rivojlantirish yo'li aniqlanadi va bo'shliqlarni to'ldirish rejalari tuziladi. Natijada, bo'lajak o'qituvchining kasbiy bilimlarini baholash orqali uning kasbiy rivojlanish imkoniyatlari kengaytiriladi. Bu esa talabalarning o'ziga xosliklari va imkoniyatlarini aniqlash, o'quv jarayonini loyihalashga oid bilim va ko'nikmalari darajasini haqqoniy baholash, ularni turli tadbirlarga jalb etish imkonini beradi.

¹ Ma'murov B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi. Ped.f.doktr.diss. TDPU. 2018. – 263 bet. B.114.

Shu tariqa bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishga sharoit yaratiladi. Jumladan, o'quvchilarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, ularni tarbiyalashda aniq axloqiy-ma'naviy tamoyillarga tayanish, o'z faoliyati natijalarini muntazam tashxislash va takomillashtirish, pedagogik jamoada ishlash ko'nikmalarini egallash, o'zining pedagogik bilimlarini namoyon qilish kabilar. Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish, yo'naltirish ularni o'z kasb mahoratini takomillashtirishga rag'batlantiradi. Pedagogik faoliyatning samarali kechishida u qanday tur yoki shaklda bo'lishidan qat'i nazar muayyan prinsiplarga muvofiq amalga oshirilishi ahamiyatli sanaladi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishda ham ustuvor prinsiplarni belgilashga e'tibor qaratildi. Fikrimizcha, quyidagi tamoyillarga asoslanishi bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

USTUVOR TAMOYILLAR



Maqsadning aniqligi. Pedagogik tashxislash va monitoring jarayonida maqsadning aniqligi bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini baholashda ular duch kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlash, ushbu sifatlarga egalik darajasini belgilash hamda kutilgan natijalarni prognoz qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Pedagogik tashxislash va monitoring jarayonining yaxlitligi. Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish jarayonining yaxlit tashkil etilishi barcha omillar, tarkibiy qismlarni, ularning o'zaro aloqadorligini inobatga olinishini ta'minlaydi.

Pedagogik tashxislash va monitoring muddatining aniqligi. Pedagogik jarayonda tashxis muddatlarini to'g'ri, oqilona belgilash va ularning aniqligiga erishish olingan natijalarning obyektiv bo'lishiga yordam beradi.

Pedagogik tashxislash hamda monitoring jarayonining izchilligi va davomiyligi. Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish jarayoni izchil, davomiy bo'lishi ular duch kelayotgan kamchiliklarni

aniqlash, bosqichma-bosqich bartaraf etib borish imkonini beradi.

Barcha omillarning inobatga olinganligi. Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishda dastlab bu jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillarni tizimlashtirish, ularni inobatga olish fikrning asosli, to'g'ri bo'lishiga olib keladi.

Pedagogik tashxislash va monitoring qilish metodikasining amaliyotga mosligi. Pedagogik, psixologik jarayonlarda metodikaning shakllantirilishi va uning amaliy qiymatga ega bo'lishi tashxislashning samarali bo'lganligidan dalolat beradi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish metodikasining amaliyotga mos kelishiga e'tibor qaratish to'g'ridir.

Tashxis natijalarining haqqoniyligi va ishonchliligi. Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish, ularning darajasini ko'rsatuvchi natijalarning haqqoniy va ishonchli bo'lishi uchun respondentlarning tajriba hamda nazorat guruhlariga ajratilishi, barcha respondentlarning anketa, test topshiriqlariga bevosita va xolis javob berishlari, amaliy, ijodiy topshiriqni bajarishda belgilangan vaqt reglamentiga rioya qilishlari maqsadga muvofiqdir. Binobarin, tashxislash va monitoring natijalarining haqqoniy va ishonchli bo'lishi istiqbol vazifalarini belgilashga, korreksion ishlarni tashkil etishga imkon beradi.

Natijalarning maqsadga muvofiqligi. Pedagogik tashxislash va monitoring natijalari qo'yilgan maqsadning xarakteriga mos bo'lishi, o'rganilayotgan holatni ifodalay olishi zarur. Bordi-yu, olingan natijalar maqsad negizida ko'zda tutilgan holatlarni yoritma olmasa, u holda nazarda tutilgan jarayon noto'g'ri tashkil etilgan, degan xulosaga kelinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асадуллин Р.М., Дорофеев А.В., Левина И.Р. — Диагностика цифровых компетенций педагога // Педагогика и просвещение. – 2022. – № 1. – С. 1-17.
2. Вьготский Л.С. Диагностика развития и педологическая клиника трудного детства // Собрание сочинений: в 6 т. Т. 5. – М.: Наука, 1983. – С. 257.
3. Гутник И.Ю. Педагогическая диагностика профессиональных дефицитов учителя в условиях трансформации современного образования // Вестник НГПУ. 2021. №4.
4. Иньков, М.Е. Диагностика профессиональной компетентности учителя в условиях повышения квалификации / М.Е. Иньков. Автореферат дис. ...канд. пед. н. – Ростов н/Д. – 2009. – С.24. С.10-11.
5. Мезенцева О.И. Диагностика уровня развития профессиональной компетентности педагога в системе повышения квалификации // МНКО. 2018. №2 (69).
6. Печеркина, А. А. Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика: монография / А. А. Печеркина, Э. Э. Сыманюк, Е. Л. Умникова : Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург : [б.и.], 2011. – С.233.
7. Хусанов Ф.О. Designing a model for organizing the management and monitoring of the process of professional training of future teachers // JournalINX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.- Maharashtra India, 2021.- ISSN No:2581-4230VOLUME 7, ISSUE 11-P.72-74.